



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



GLOBALLASHUV DAVRIDA IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARI

Usmonov Sardorbek Mahmudjon o‘g‘li

Andijon tumani IIB huzuridagi tergov bo‘linmasi tergovchisi, kapitan

Annotatsiya: *Globallashuv faqatgina ijobjiy jarayon bo‘lmay, uning salbiy xususiyati asosan ekologiya, sogliqni saqlash, demografik, resurslar, axloq, oila, talim-tarbiya, ma’naviy dunyoqarash kabilarda namoyon bo‘lmoqda.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, inson, jarayon, shaxs, ma’naviyat, ijtimoiy xususiyat, siyosiy munosabat, tarbiya*

Аннотация: глобализация-это не просто положительный процесс, ее отрицательный характер проявляется в основном в таких аспектах, как экология, здравоохранение, демография, ресурсы, этика, семья, образование, нравственное мировоззрение.

Ключевые слова: глобализация, человек, процесс, личность, духовность, социальная характеристика, политические взгляды, воспитание

Annotation: *globalization is not just a positive process, its negative nature is manifested mainly in the likes of ecology, health, demographic, resources, ethics, family, education, spiritual worldview.*

Keywords: *globalization, man, process, personality, spirituality, social character, political attitude, upbringing*

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ya’ni, globallashuv jarayonlarining asosi insoniyat aql-zakovatining yangi taraqqiyot bosqishiga ko‘tarilish jarayoni bilan birgalikda sodir bo‘ldi. Oqibatda turli millatlar, xalqlar va mamlakatlarni o‘zlari istamagan holda bir-biriga bog‘lab qo‘yish, jahonda ro‘y berayotgan turli sohalardagi o‘zgarishlarni soniyalar ichida ommalashishga olib boruvchi kompyuter, axborot texnologiyalari va boshqalar jadal xizmat qila boshladi. Shu munosabat bilan, dunyo mamlakatlarining ijtiyoiy-iqtisodiy, siyosiy jiqatdan bir-biriga yaqinlashuvi tezlashib boradi. Bugungi kunda ham globallashuv sharoitida davlatlarning tashqi aloqalarini samarali kengayishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi shaxs ma’naviy qiyofasi va intellektual salohiyatiga yangicha bilimlarni egallash va innovatsion rivojlanish muhitini yaratish kabi talablarni qo‘ymoqda.

O‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning teng a’zosi va uning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Shunday ekan, hozirda mamlakatimizda yuksak salohiyat, yuqori bilim va xalqaro talablarga javob beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda bunday mutaxassislarga bo‘lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. Shu bois intellektual zakovatga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash, ularni jahon ilm arenalarini zabit etadigan mezonlar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Globallashuv faqatgina ijobiy jarayon bo‘lmay, uning salbiy xususiyati asosan ekologiya, sogliqni saqlash, demografik, resurslar, axloq, oila, talim-tarbiya, manaviy dunyoqarash kabilarda namoyon bolmoqda. S.P.Kapitsa, S.P.Kurdyumov, G.G.Malinetskiy aytib o‘tganlaridek, “Olimlar siyosatchilarning qo‘liga butun Planetadagi hayotni bir emas, bir necha bor yoq qilish quvvatiga ega bo‘la oladigan qurollarni tutqazdilar, vaholanki, kelajakda ularni qanday yo‘qotish va nima qilish mumkinligini aniqlashga harakat qilmadilar..., ular energiyaning yangi manbalarini kashf etdilar va etmoqdalar, shuning bilan birga radioaktiv chiqindilar va yadroviy terrorizmdan qutulishday juda jiddiy muammolarini ham vujudga keltirdilar..., ular odamlarga antibiotiklarni sovg‘a qildilar, ayni paytda, zararli mikroorganizmlarning tabiiy tanlanish jarayonini kuchaytirdilar”⁵.

Yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida A.Chumakov “Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, ma’naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo‘nalishlarini universallashuviga olib kelishi bilan birga, an’anaviylik, o‘ziga xoslik va madaniy xilmashillikni saqlashni istisno qilmaydi”⁶, - degan fikrni ilgari suradi. Bu davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishga majburdir. Inson yashayotgan zaminining, tinch va barqaror kechirayotgan hayotining mohiyatini to‘la anglashi, qadrlashi, yani ijtimoiy muhitning ob‘yekti sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganlaridek “...shuni ob‘yektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘snilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib bormoqdaki, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish va anglash qiyin emas”⁷.

Globallashuv jarayoni jadallahib borayotgan hozirga vaqtida davlatning muvaffaqiyatlari va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – o‘sha mamlakatning ta’lim tizimining holati bilan bo‘liq. Zero, davlatning bugungi va kelajakdagi qaddi bukilmas iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi yagona omil ham aynan ta’limning rivojlanishiga bogliq. Shu sababli, mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq iqtisodiyot sohasini tubdan isloh qilish bilan birga uzuksiz ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilandi. Bu esa davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalarning kengayishini, o‘zaro bog‘liqligini belgilaydiva yakunida ularning yaqinlashuviga olib keladi. Bu o‘ziga xos siyosiy munosabatlar orqali barcha mamlakatlarning ichki tuzilishi ham bir jarayongabog‘lanib ketishi kuzatiladi. Mazkur jarayon davlatlarning milliy suverenitetiga xavf solishi mumkin bo‘lgan qator omillarmavjud. Ularga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

⁵Копица С.П., Куйдрюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика Ипрогнози будущего Изд.2-ое.-М.:Editorial URSS.2001.3-стр.

⁶Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры целостного моира.- М., Проспект, 2005 год. 256-стр.

⁷Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent.: Ma’naviyat, 2008 yil 111-bet.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Birinchidan, dunyo siyosiy maydonidagi transmilliy korporatsiyalar vayetakchi xalqaro tashkilotlar kabi yirik yangikuchli siyosiy institutlar paydo bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro huquqning asoslariga ham jiddiy ta’sir qilmoqda.

Uchinchidan, kishilar ongida davlatchilik suvereniteti g‘oyasi ahamiyatini yoqotib bormoqda.

Tortinchidan, butun dunyo boylab bir qator garb davlatlari rahnamoligida “demokratiyalashuv” jarayoni jadallahmoqda. Ayni shu ma’noda A.V.Buzgalin “Globallashuv siyosatga ta’siri kuchli bo‘lib, havfsizlik va iqtisod sohasida davlatlarning bir-biriga tobelligini kuchaytirib, har birining jahon sahnasidagi ustuvor jihatlarining chuqur o‘zgarishiga olib keladi. Tashqi siyosiy vositalar arsenaliga boshqacha nuqtai nazardan qarashga majbur qilib, jahon siyosatining tadrijiylashish jarayonining tezlashib ketishiga olib keladi”⁸, - deb yozadi.

Globallashuv bir qarashda real va ochiq ekanligi keltirilsa ham, uning har xil muqobillari namoyon bo‘lishi tabiiy ravish xavfli tus olmoqda. Shuninig uchun, globallashuvning biror-bir belgisini yoki nuqtasini mutlaqlashtirib, bunga nisbatan aniq ijobjiy aksincha salbiy jarayon deb baholash noto‘g‘ri. O‘z o‘rnida, sotsiolog olim U.Bek “Shubhasiz, globalizatsiya eng kop qollaniluvchi va eng ko‘p suistemol qilinuvchi va eng kam o‘rganilgan, ehtimol tushunarsiz mavhum, siyosiy jihatdan samarali so‘zdir (bahs-munozarada kuchli qurol, shior)”⁹, - deb ta’kidlagan edi.

Umumiy tarzda yondashilganda, globallashuv qiyin kechadigan va ko‘p qirrali jarayon bolib, u turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’sir kuchi ham turlicha bo‘lmoqda. Mazkur holat dunyo davlatlarining iqtisodiy potensiali, ma’naviy irodasi va siyosati mustahkamligi bilan bogliq. Bugungi eng asosiy masala, jahonda ro‘y berayotgan o‘ta tezkor jarayonlarning har qaysi davlat bo‘lmasin, ularga keltirayotgan salbiy ta’sirini yo‘qotish va ijobjiy ta’sirlarini oshirish, davlatlarning ertangi taqdirini belgilab beruvchi asosiy vosita bo‘lib qolmoqda.

Globallashuvning asosiy belgilari, tendensiyalari va u keltirib chiqaradigan oqibatlar atrofidagi bahs-munozaralar keyingi yillarda jonlanibgina qolmay, balki qizgin jadallahmoqda. Hozir faqat bir davlatda emas, balki dunyoda bir-biriga qarshi o‘zaro kurashib borayotgan “globallashuv” tarafдорлари va unga zid bo‘lgan “antiglobalist” larga ajraldi. Ba’zi bir olimlar globallashuvni munosib turmushni tanlash huquqi va yanada erkin jamiyat, izlagan axborotni olish mumkinligi, yuqori maosh beriladigan joyga borib ishslash huquqi, nufuzli oily ta’lim muassasalarida o‘qish mumkinligi bilan bog‘lasalar, ikkinchi toifadagilar uchun globallashuv insoniyat hayotiga raxna yoki tahdid soluvchi, tabiatning global ifloslanishi, atrof-muhitning zararlanishi, qat’iy nazoratga olinmagan migrantsion muhitning paydo bo‘lishi kabi omillarining vujudga kelishi, ishsizlikning tobora ko‘payishi,

⁸Бузгалин А.В. Алтерглобализм: ктеории феномена. Наука. Общество. Человек.-М.,2004.

⁹БекУ.Что такое глобализация? М., 2001 г. - Стр40.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



azaliy qadriyatlarning toptalishi kabi muammolarni yuzaga keltiruvchi jarayon sifatida baholamoqda.

Bizning nazarimizda, globallashuv eng avvalo, hayot va taraqqiyot suratlarining g‘oyat tezlashuvidir. Butun insonlarni taqdirini birlashtirayotgan ob’ekt sifatida o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotgan globallashuvning yaxlit mohiyatini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish global muammolarning yechimlariga ham ijobiy yakun bo‘lishi mumkin. Shu fikr bilan yondashilganda, bu jarayon insonlar o‘rtasidagi ma’lum umumhajmli aloqalarni yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Янги аср авлоди, 2016.
2. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. – Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2015. – Б. 145.
3. Axmedshayeva M.A. Davlat mexanizmi va hokimiyatlar bo‘linishi. O‘quvqo‘llanma. – Т.: TDYuI, 2005. – 70 б.
4. Арасту. Ахлоқи кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 313.
5. Ахмедшаева М.А. Давлат ва ҳуқуқ ривожининг ҳозирги замон тенденциялари. Ўқув қўлланма. – Т., 2016. – Б.226.

